

Dushatova Shohsanam Baxtiyor qizi

FarDU, o'qituvchi

No'monjonova Shukronaxon Doniyorjon qizi

FarDU, 3-bosqich talabasi

Annotation: *Everything in this world has its price. Only time is precious. But not everyone can use this priceless blessing in their place. But we can make the time we spend meaningful. This article talks about the time wasted on the internet and how to use it effectively.*

Key words and phrases: *Internet, virtual world, time, development, young generation, efficient use of time, books.*

Аннотация: *все в этом мире имеет свою цену. Только время дорого. Но не каждый может использовать это бесценное благо вместо себя. Но мы можем сделать время, которое мы тратим, значимым. В этой статье рассказывается о времени, потраченном впустую в Интернете, и о том, как эффективно его использовать.*

Ключевые слова и фразы: *интернет, виртуальный мир, время, развитие, молодое поколение, эффективное использование времени, книги.*

Annotatsiya: *bu dunyoda hamma narsaning o'z bahosi bor. Faqatgina vaqt behahodir. Lekin barcha ham bu bebaho ne'matni o'z o'rnida sarflay olmaydi. Ammo sarflagan vaqtimizni mazmunli qilish bizning qo'limizdan keladi. Ushbu maqolada internet sabab behuda sarflanayotgan vaqt va unumli sarflash haqida so'z boradi.*

Kalit so'z va iboralar: *internet, virtual olam, vaqt, taraqqiyot, yosh avlod, vaqtdan unumli foydalanish, kitoblar.*

“Siz hayotni sevasizmi? Undan iborat bo'lgan vaqtni behuda sarflamang”

B.Franklin.

Internet- bu botqoqlikmi yoki inson najotkori? Bu savolga har kim har xil javob beradi. Insoniyat paydo bo'libdiki revolyutsiyaga intiladi. Doimo bir joyda qolmaydi, davom etaveradi. Ammo bir qimmatbaho narsa borki insoniyat hali ham bu ne'matni qadrlashni tushunmagan. Hozirgi 21asrda shunchalik rivojlanib ketdik, hatto bu narsalar hech kimni hayoliga kelmagan edi.

Virtual olam bizga judayam ko'p imkoniyatlar beradi. Uzog'imizni yaqin qiladi. Bizga har ishda yordam beradi. Ammo internet ham bir muloqot turi va undan foydalanish qoidalari mavjud. Axir hech qachon hayotdaham duch kelgan odamga hohlagan gapni aytib ketilaverilmaydiku. Inson ongli mavjudod va bu biz uchun juda oliy ne'matdir. Vaqt esa hayot zanjiri uni bekorchi narsalarga to'ldirsak, u judaham tez

uzuladi va hayotimizda juda ham katta muammolar paydo bo'ladi. Hozirgi yoshlar oldingilariga qaraganda ancha aqlli va uddaburon. Ammo ularning deyarli hamma vaqtlari uyali telefonlarda o'tadi va bu esa achinarli. Umr juda oliy mukofot, biz esa buni bekor sarflaymiz. Yoshlar balkim to'ri maqsadda ya'ni o'zlarining bilimlarini mustahkamlash va o'z ustularida ishlash uchun foydalanishar. Ammo ayrim yoshlar bunday qulay imkoniyatni qadriga yetishmaydi. Ular ummuman odob-axloq qoidalariga to'g'ri kalmagan sayt va guruhlariga a'zo bo'libgina qolmay bu noqobul odatlarni o'zlari uchun to'g'ri deb bilishadi. Bir so'z bilan aytganda ular uchun bu o'zlarini ko'rsatish uchun eng maqbul yo'l. Axir odam qanday qilib tarbiyasizlik bilan mashxur bo'lib, odamlar orasida o'zi uchun xurmat topadi. Bu aqlsizlikmi yoki o'ylanmay qilingan ish deyiladimi hamma hayron.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, internet bazan najot, bazan halokatdir. Bu voqealar ham o'z o'zidan bo'lmasligi aniq. Bu uchun aynan yoshlar aybdor ham deyolmaymiz. Axir kattalar doimo hushyor turishsa bunday hodisalar kamayishi aniq. Lekin hozirgi zamonda hatto ota-onalar ham uyaliy telefon yohud ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolishgan. Axir "Qush inida ko'rganini qiladi" deb bekor bobokalonlarimiz aytishmagan. Kattalar qanday gapirishsa, qanday o'zlarini tutishsa va qanday ishlar bilan shug'ullanishsa oshlar ham huddi shularni takrorlaydilar. Agarda ota-onalar bollalarni nima shug'illanishayotganini, kim bilan qayerga borishlarini va nimalar haqida suhbatlashishlarini nazorat qilishsa hech ham bundy noxushliklar sodir bo'lmaydi. Bazi bir qo'shtirnoq ichidagi otalar va onalar farzandini hatto nechanchi sinfda o'qishini ham bilmaydi. Bular qanday odamlar bo'lishdiki farandiga ummuman qiziqmasalar. Shunday oilalar sababli qanchadan qancha bollalar hayotdan erta ko'z yumushmoqda. Yoki qanchadan qancha o'smirlar jinoyat yo'lini tanlashmoqda, yoki internet o'rgimchaklari to'riga osonlikcha ilinishmoqda.

Agarda barchamiz birdek harakat qilib uyali telefonlardan kamroq foydalanib yoki ozroq vaqtimizni haqiqiy olamda yashah va davlatimiz bergan imkoniyatlardan foydalansak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan, bolalarga telefon o'yinlarining o'rniga suratli kitoblar, yoki o'rta yoshdagi bolalarni sport mashg'ulotlariga, yana o'smir ya'ni voyaga yetayorgan yigit-qizlarimizni kelajagi uchun qo'shimcha mashg'ulotlarga bersak judayam maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ularning vaqtlarini to'g'ri taqsimlash har bir ota-onaning burchi va vaziyafi deb bilaman. Har bir yrtishib chiqayotgan yetuk kadrlar davlatimi uchun iqtisodiy hamda sisosiy ko'mak bo'ladi. Yoshlarimiz juda ham aqlli va zukko ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirsak bizning ham yangi Alisher Navoiy, Ibn Sino va yana boshqa mutaffakirlarimizdanda buyukroq insonlar yetishib chiqishadi.

Yashashga shoshilmang. Hamma narsa uchun vaqt bor - va hamma narsa siz uchun quvonchli bo'ladi. Ko'pchilik uchun hayot juda uzoq, chunki baxt juda qisqa: ular quvonchlarni erta sog'inishdi, ulardan zavqlanishmadi, keyin qaytarishni istashdi, lekin ulardan uzoqlashishdi. Hayot davomida ular pochta orqali shoshilishadi,

shoshqaloqliklarini odatdagi vaqtga qo'shadilar; bir kunda ular butun hayoti davomida hazm qila olmaydigan narsani yutishga tayyor; ular qarzdorlik quvonchini yashaydilar, ko'p yillar davomida yutib yuboradilar, shoshilishadi va shoshilishadi - va hamma narsani yo'q qilishadi. Hatto bilimda ham bilishga arzimaydigan bilimga ega bo'lmaslik uchun o'lchovni bilish kerak. Bizga muborak soatlardan ko'ra ko'proq kunlar beriladi. Sekin-asta zavqlaning, lekin ikkilanmang.

Vaqt bu judayam topilmas narsa. Oila esa muqaddas va bu gaplarim orqali nima demoqchiman, inson bu hayotda otkinchi narsalar bilan yashamaslik kerak. Va bizga berilgan imkoniyatkardan doino tog'ri foydalanib yashashimiz zarur. Internet juda mo'jizakor chek chegarasi yoq narsa ammo uni buzg'unchilik maqsadida foydalanish payti kelganda o'z joniga qads qilish bilan tugamoqda. Va shu bilan oxirida aytmoqchimanki ogoh bo'ling, yolg'onlarga ishonib o'zingizni harob qilmang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dushatova, S. (2022). EVFEMIZM TUSHUNCHASI TAHLILI.
2. Dushatova, S. (2022). LINGUISTIC AND SOCIAL ORIENTATION OF TABOOS. *Science and innovation*, 1(B6), 318-321.
3. Dushatova, S., & Tursunaliyev, M. (2022). CHET TILLARINI O'RGANISHNING INSON RIVOJLANISHIGA TASIRI. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(7), 133-138.
4. Dushatova, S., & Azamov, M. (2022, November). SO'Z TURKUMLARI TASNIFI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 1, No. 6, pp. 89-95).
5. qizi Dushatova, S. B., & qizi Qodiraliyeva, N. I. (2022). EFFECTIVE METHODS OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES. *International Academic Research Journal Impact Factor 7.4*, 1(5), 63-67.
6. Shokhsanam, D., & Makhmudova, M. (2022). BENEFITS OF DAILY READING. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(8), 28-32.
7. Dushatova, S., & Burgutova, G. (2022). CHET TILLARINI BILISHNING FOYDALARI. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(8), 40-45.
8. <https://englishyz.ru/uz/the-structure-of-the-atom/mudrye-vyskazyvaniya-o-vremeni-i-zhizni-citaty-pro-vremya-frazy-i/>